

3.4. "Iste'molchi" hisob-kitob davri tugagandan so'ng Elektr ta'minoti korxonasi vakolatli vakili bilan birgalikda (mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda) yoki uning ishtirokisiz hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini har oyda yozib oladi va ushbu shartnomaning 5-ilovasiga muvofiq shaklda energiya sarfi bo'yicha hisobot tuzadi.

*"Iste'molchi" "Ta'minotchi korxonaga"ga energiyaning sarflanishi to'g'risidagi hisobotni o'z qo'li bilan, faksimil, elektron yoki pochta aloqasi orqali har oyning*

*"25" sanasigacha taqdim etadi.*

Bunda, to'lovlarni tabaqalashtirilgan tarifda amalga oshiradigan "Iste'molchi"lar bo'yicha elektr energiya sarfi bo'yicha hisobotda foydalanilgan elektr energiya (aktiv va reaktiv) to'liq hajmidan tashqari tig'iz, yarim tig'iz va tungi paytlarda foydalanilgan elektr energiya hajmlari aloxida ham ko'rsatilishi shart.

3.5. Elektr energiyasi uchun amaldagi tariflar o'zgargan taqdirda, "Hududiy elektr tarmoqlari" korxonasi ularning kuchga kirishidan kamida 15 kun oldin qarorni ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi.

Bunda elektr energiyasi uchun tariflar o'zgargan sanadan qat'iy nazar, elektr ta'minoti shartnomasi o'z kuchida qoladi va iste'molchi foydalanilgan elektr energiyasi uchun yangi tarif kuchga kirgan kundan boshlab xaq to'lashga majburdir.

Tarif o'zgargan taqdirda, iste'molchilar elektr energiyasi (shu jumladan aktiv va reaktiv energiya)ning avans tariqasida to'langan xajmi uchun to'lov kunidan boshlab keyingi bir oydan ortiq bo'lmagan muddatda qo'shimcha to'lov to'lashdan ozod etiladi.

Arifmetik xatoliklar, tariflarni noto'g'ri qo'llash tufayli paydo bo'ladigan kam va ortiqcha to'lovlar tegishli tarif bo'yicha kVt/soatlarda qayta hisoblab chiqiladi va "Ta'minotchi korxonaga" tomonidan da'vo muddati doirasida ko'rsatkichlardagi tafovut yoki qo'shimchalar bilan birgalikda hisobga olinadi.

3.6. "Iste'molchi"ga elektr energiyasi yetkazib berish 100 foiz oldindan haq to'lash asosida amalga oshiriladi. Bunda, hisob-kitobni 50 foiz oldindan haq to'lash asosida amalga oshirish xohishini bildirgan iste'molchilar hisob-kitob amalga oshiriladigan davrni ko'rsatib hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin bildirgi tartibida Ta'minotchi korxonaga murojaat qilganlari taqdirda elektr energiyasi iste'molchilarga 50 foiz oldindan haq to'lash asosida yetkazib berilishiga yo'l qo'yiladi. Oldindan haq to'lanmagan hamda 50 foiz oldindan haq to'layotgan iste'molchilar tomonidan o'z oxirigacha yakuniy hisob-kitob amalga oshirilmagan hollarda mazkur iste'molchilarga nisbatan elektr tarmoqlaridan to'liq uzishgacha bo'lgan choralar ko'riladi.

3.7. "Ta'minotchi korxonaga" "Iste'molchi"ning energiya sarfi to'g'risidagi hisoboti asosida belgilangan tartibda hisob-kitobni amalga oshiradi va besh kun ichida to'lov amalga oshirish uchun hisob-faktura va to'lov hisob-varag'ini taqdim etadi.

"Iste'molchi" turli tarif guruhlariga tegishli bo'lgan bir nechta ob'ektga ega bo'lsa, har bir tarif guruhi uchun tarif ko'rsatilgan holda umumiy hisob-faktura taqdim etadiladi.